



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТИНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR TEKSHIRUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

JUMAYEV Shohjahon Begimqul o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
tayanch doktoranti, Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi
E-mail: Shohjahon7474@gmail.com

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): JUMAYEV Sh.B. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini takomillashtirish: milliy va xorijiy tajriba // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2025) B. 80–86.



3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari, ularning o'ziga xos jihatlari hamda qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbiri shakllarining tasnifi haqida so'z borgan. O'tkazilgan prokuror tekshiruvlariga doir ayrim rasmiy statistik ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bir qator huquqshunos olimlarning fikrlari bilan ilmiy munozaraga kirishilgan hamda ularning qarashlariga nisbatan muallifning shaxsiy ilmiy-nazariy pozitsiyasi keltirib o'tilgan. Bir qator xorijiy davlatlar, jumladan, Qozog'iston, Turkmaniston, Belorussiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Singapur, Malayziya kabi davlatlarning ilg'or tajribasi milliy qonunchiligimiz bilan qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan hamda takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi, prokuror nazorati, prokuror nazorati tadbiri shakllari, monitoring, tekshiruv o'tkazish muddatlari, axborot-tahlil faoliyati.

IMPROVEMENT OF PROSECUTOR'S VERIFICATIONS ON THE IMPLEMENTATION OF LAWS: NATIONAL AND FOREIGN EXPERIENCE

SHOKHJAKHON Djumayev

Doctoral student of the Law Enforcement Academy of
Republic of Uzbekistan, Senior lecturer of Training Institute for lawyers
E-mail: Shohjahon7474@gmail.com

ANNOTATION

This article discusses prosecutorial inspections of the execution of laws, their specific aspects and the classification of forms of prosecutorial supervision over the execution of laws. Some official statistical data on the conducted prosecutorial investigations are presented. A scientific discussion was held with the opinions of a number of legal scholars, and the author's personal scientific and theoretical position on their views was presented. The best practices of a number of foreign countries, including Kazakhstan, Turkmenistan, Belarus, the USA, Great Britain, France, Singapore, Malaysia, were comparatively and legally analyzed with our national legislation, and proposals were put forward.

Keywords: prosecutor's verifications over the execution of law, prosecutorial supervision, prosecutorial supervision over the execution of laws, monitoring, deadlines for conducting verifications, information-analytical activity.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОКУРОРСКИХ ПРОВЕРОК ПО ИСПОЛНЕНИЮ ЗАКОНОВ: НАЦИОНАЛЬНЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

ЖУМАЕВ Шохжахон

Правоохранительная академия Республики Узбекистан
базовый докторант, Старший преподаватель Института переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров
E-mail: Shohjahon7474@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются прокурорские проверки исполнения законов, их особенности и классификация форм прокурорского надзора за исполнением законов. Приведены некоторые официальные статистические данные по проведенным прокурорским проверкам. Вступив в научную дискуссию с мнениями ряда ученых-правоведов, приведена личная научно-теоретическая позиция автора по отношению к их взглядам. Проведен сравнительно-правовой анализ передового опыта ряда зарубежных стран, а именно Казахстана, Туркменистана, Беларуси, США, Великобритании, Франции, Сингапура, Малайзии с национальным законодательством и выдвинуты предложения.

Ключевые слова: прокурорская проверка, прокурорский надзор, формы мероприятий прокурорского надзора за исполнением законов, мониторинг, сроки проведения проверок, информационно-аналитическая деятельность.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishda Respublikamizda prokuratura organlari tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan samarali nazorat o'rnatilishi hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biridir.

Yurtimizda davlat boshqaruvini takomillashtirish, aholining turmush darajasi va hayot farovonligini oshirish, hududlarni har tomonlama rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda prokuratura organlarining mas'uliyatli hamda sharaflil faoliyati sezilarli ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "El-yurtimizning Konstitutsiyamizda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishda, qonuniylilikni ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olishda prokuratura organlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda" [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori N.T.Yo'ldoshev ham joriy yil 19-mart kuni mamlakatimiz aholisiga qilgan murojaatlarida "Har bir tekshiruv hamda tergov ishi prokurorlarning kundalik va qat'iy nazoratida bo'ladi. Tekshiruv va tergov harakatlarining har tomonlama, to'liq, eng asosiysi, xolis va qonuniy o'tkazilishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi" [2], deb ta'kidlab o'tdilar.

Dastavval, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati hamda prokuror tekshiruvi borasidagi huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy fikrlari tahliliga to'xtalib o'tsak. Yuridik adabiyotlarda qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlariga doir turlicha fikrlar bildirilgan. Xususan, huquqshunos olim B.X.Po'latov "Qonunlar ijrosi ustidan nazorat tartibida o'tkaziladigan tekshiruv prokuratura organlari faoliyatining strategiyasini aks ettiradi. Hozirgi vaqtda ularning tematikasi xilma-xildir. Ular qatoriga fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi to'g'risidagi, mulkchilik to'g'risidagi, tadbirkorlik faoliyati, xususiylashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, soliq, bank, bojxona, yerga doir va boshqa qonunlarning ijrosi ustidan nazorat kiradi" [3], deb ta'kidlasa, O.M.Madaliyev "Qonunlar ijrosini tekshirishning asosiy omili sifatida tekshiruvlarning aniq va yuqori saviyada rejalashtirilishini olish mumkin. Boshqaruv idoralari, mahalliy hokimiyatlar,

nazorat idoralari, mansabdor shaxslarning fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlarini poymol etuvchi noqonuniy huquqiy aktlarini aniqlash va ularga protest keltirish masalasini hal etish umumiy nazorat faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi” [4, B.19], deya qayd etadi. Shuningdek, A.B.Komilov “Qonunlar ijrosi yuzasidan prokuror tekshiruvining bosh maqsadi qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir” [5, B.1], deb ta’kidlagan.

Shu kabi, yuridik adabiyotlarda prokuror nazoratiga ham batafsil ilmiy-nazariy ta’riflar berilganligini ko’rish mumkin. Jumladan, F.X.Raximov “O’zbekistonda prokuror nazorati – O’zbekiston Respublikasi nomidan davlat faoliyatini amalga oshiruvchi prokuratura organlarining o’ziga xos faoliyat turidir. Prokuror nazorati davlat faoliyatining mustaqil, alohida maqomga ega o’ziga xos ko’rinishi” [6, B.88], deb qayd etsa, M.X.Rustambayev “Prokuror nazorati – davlat nomidan maxsus vakolatga ega mansabdor shaxs – prokurorlar tomonidan qonun buzilishi holatlarini o’z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, aybdor shaxslarni qonun bilan belgilangan tartibda javobgarlikka tortish bilan qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishini ta’minlashga qaratilgan faoliyatdir” [7, B.8], deb ta’kidlaydi. Y.V.Kolenkoning fikriga ko’ra esa, “Prokuror nazorati prokuratura faoliyatining asosiy yo’nalishlaridan biri bo’lib, prokuror nazorati orqali turli huquqbuzarliklarni aniqlash va ularning oldini olish, agar asoslar mavjud bo’lsa, aybdor jismoniy va yuridik shaxslarni tegishli turdagi javobgarlikka tortish masalasi ko’riladi” [8, B.23].

Yuqoridagi “Prokuror nazorati” hamda “qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi” tushunchalariga doir yuridik adabiyotlarni tahlil qilib, shunday to’xtamga kelishimiz mumkinki, prokuror nazorati qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi tushunchasidan ko’ra kengroq tushunchadir. Boisi, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati prokuror tekshiruvidan boshqa prokuror nazorati tadbiri shakllari orqali ham amalga oshiriladi.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi samarali bo’lishi hamda yanada rivojlantirilishini ta’minlashda xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil etish, uning ilg’or jihatlarini milliy qonunchilik va prokuror nazorati amaliyotiga joriy qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Boisi, bir qancha xorijiy davlatlarda ham sifatli prokuror tekshiruvlarini o’tkazish orqali qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylikni mustahkamlash hamda huquqbuzarliklarni oldini olish va unga imkon bergan sabab, shart-sharoitlarini bartaraf etish muhim vazifalardan sanaladi.

Xorijiy mamalakatlar konstitutsiyalari va boshqa qonun hujjatlari tahlilidan kelib chiqadigan bo’lsak, hozirgi vaqtda ayrim mamalakatlarda prokuratura yo sud hokimiyatiga (Gruziya, Litva, Moldovada) yoki ijro etuvchi hokimiyat tarkibiga (Qirg’iziston, Estoniyada) kiradi yoxud umuman hokimiyatning hech qaysi tarmog’i bilan umuman bog’lanmagan (qator boshqa davlatlarda) [9].

Shu bilan bir qatorda, prokuraturani ijro etuvchi hokimiyat tizimiga kiritilganligining klassik namunasini AQSH da ko’rish mumkin. AQSH da davlatning Bosh attorneysi bir paytning o’zida Adliya vaziri lavozimini egallaydi.

Roman-german huquqiy oilasiga kiruvchi ko’pgina davlatlarda esa prokuratura go’yoki sud va ijro etuvchi hokimiyatlar “chegarasida” joylashgan. Ushbu davlatlar Konstitutsiyalarida bu organlar o’rtasidagi ma’muriy bo’linish (chegara) qayerdan o’tganligi noaniq qolgan. Bir qator ruminiyalik huquqshunos olimlar prokuraturani aslida ijro etuvchi hokimiyat tarmog’ining tarkibiy qismi, deb hisoblaydilar va Konstitutsiyaga prokuraturaning asosiy funksiyalarini va umumiy institutsiyaviy tizimdagi o’rnini aniq belgilovchi qoidalar kiritilishini taklif qiladilar. Shu bois, Ruminiyaning 1992-yilgi “Sudyalik ishini tashkil qilish to’g’risida”gi Qonuniga 1997-yilda kiritilgan o’zgarishlar aynan shu mazmunni o’zida aks ettirgan.

Germaniyaning “Sud qurilishi to’g’risida”gi Qonuniga sharhlarda aytilishicha, “Prokuratura ko’proq uchinchi hokimiyatga, odil sudlovni amalga oshiruvchi hokimiyatga bo’ysunadigan huquqni muhofaza qiluvchi organdir”. Prokuratura o’z vazifalariga ko’ra, suddan mustaqil, o’z shtatlariga ega, tashkiliy jihatdan suddan ajratilgan, ammo har bir prokuratura sud huzurida mavjudligi e’tirof etilgan (“Sud qurilish to’g’risida”gi Qonunning 141, 146, 150, 151-paragraflari) [10].

Lotin Amerikasida prokuraturaning turli funksiyalari o’rtasidagi ba’zi ziddiyatlarni o’ziga xos tarzda mantiqiy hal qilishga urunib ko’rilgan. Masalan, Kolumbiya Konstitutsiyasida mamlakat prokuraturasi ikkita mustaqil qismga bo’lingan. Ulardan birinchisi “Bosh fiskalsiya” deb ataladi hamda u sud hokimiyati tarkibiga kiradi va jinoyat-huquqiy taqibni amalga oshiradi. Ikkinchi esa “Ommaviy vazirlik” hisoblanib, nazorat qiluvchi hokimiyatga kiradi va umumiy nazoratni amalga oshiradi, davlat organlarining faoliyatini jamiyat va fuqarolar manfaatlari yo’lida tekshirib turadi.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruviga doir xorij tajribasini tahlil qilar ekanmiz, o’rganiladigan davlatlarni shartli ravishda uch guruhga bo’lib olsak, maqsadga muvofiq bo’ladi: MDHga a’zo davlatlar, G’arb davlatlari hamda Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari.

Xususan, Qozog’iston Respublikasining 2022-yil 5-noyabrda №155-son bilan qabul qilingan “Prokuratura to’g’risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni 17-moddasi birinchi qismida prokuror nazoratining shakllari va chegaralari ko’rsatilgan. Unga ko’ra, prokuror nazorati qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi, qonuniylik holatini tahlil qilish, kuchga kirgan hujjatlarni baholash orqali amalga oshiriladi. Mazkur normadan ko’rinib turibdiki, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi prokuror nazoratining faqat bir shakli hisoblanadi. Bir so’z bilan aytganda qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi prokuror nazoratini amalga oshirishga qaratilgan bo’lib, uning bir shakli deb e’tirof etish mumkin.

Bulardan kelib chiqib, O’zbekiston Respublikasining “Prokuratura to’g’risida”gi Qonuniga “Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbiri monitoring o’tkazish, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi, axborot-tahlil faoliyatini yuritish, nazorat qiluvchi organlarning qonun buzilishi to’g’risidagi materiallarini ko’rib chiqish shakllaridan iborat” tarzidagi huquqiy norma kiritilishini taklif qilamiz.

Turkmaniston Respublikasining 2015-yil 2-dekabrda qabul qilingan “Prokuratura to’g’risida”gi Qonuni [11] 27-moddasida qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish bir oygacha bo’lgan muddatda amalga oshiriladi. Tekshiruvni tayinlagan prokuror yuqori turuvchi prokurorning roziligi bilan uni o’tkazish muddatini uch oygacha, Turkmaniston Bosh prokurorining roziligi bilan esa olti oygacha uzaytirishi mumkin, bu haqda tekshirilayotgan tashkilot rahbariga yozma ravishda xabar beradi.

O’zbekiston Respublikasining “Prokuratura to’g’risida”gi Qonuniga qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini o’tkazishning quyidagi muddatlari kiritilishini taklif qilamiz.

Prokuratura organlari tomonidan qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi 1 oy muddatda o’tkaziladi. Quyidagi hollarda tegishli prokuror tomonidan mazkur muddat yana bir oyga uzaytirilishi mumkin:

- Prokuror tekshiruvlari bo’yicha o’tkazilishi ko’p vaqtni talab qiladigan ekspertiza yoki taftish tayinlanganda;
- Tekshiruv o’tkazishning bir oylik muddatida qonunbuzilishlari to’liq aniqlanmaganda, ammo tekshiruvni davom ettirish uchun hali asoslar mavjud bo’lganda.

O’zbekiston Respublikasi qonunchiligida muayyan faktni belgilash bilan, shaxslarni turli xil javobgarlikka tortish hamda ularning huquq va erkinliklarini huquqiy ta’sir choralar orqali qonuniy cheklash bilan bog’liq bo’lgan jarayonlarni o’tkazish muddatlari tegishli qonun va kodekslar

darajasida tartibga solinganini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshirishning muddatlari "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasida, Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov muddatlari esa, Jinoyat-protsessual kodeksining 351-moddasida qat'iy belgilab berilgan. Shu nuqtayi nazardan, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvining muddatlari ham qonun hujjatlari bilan aniq belgilab qo'yilishi asosli bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Shu bilan bir qatorda, tekshirishni o'tkazish muddati alohida hollarda yana o'ttiz ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga, faqat Bosh prokuror yoki uning o'rinbosari bilan kelishilgan holda uzaytirilishi lozimligi O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga kiritilsa, ushbu Qonun yanada takomillashgan hamda uni qo'llash samaradorligi oshgan bo'lar edi.

Yuqorida keltirilgan Turkmaniston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunida belgilangan qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlariga doir normalarni qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur davlatda prokuror tekshiruvlarini o'tkazish muddatlari, davomiyligi va tekshiruv jarayonidagi prokurorning huquq va majburiyatlari Qonun darajasida belgilab qo'yilganligi e'tiborga molik hamda ijobiy tajriba sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Shu kabi, Belorussiya Respublikasining tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mazkur davlatning "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 19-moddasida belgilanishicha, prokuror qonunlarning to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash uchun tegishli asoslarda davlat organlari faoliyatini tekshirishi mumkin. Bundan tashqari, prokurorlar tekshiruvlarni amalga oshirgan vaqtida faqat qonuniy asoslarda harakat qiladilar, ular faqat zarurati bo'lgan hollardagina tekshiruvlar o'tkazishlari kerak. Bu modda tekshiruv jarayonining huquqiy me'yorlarga asoslanishi va adolatli bo'lishini kafolatlaydi. Tekshiruvlar vaqtida, agar lozim bo'lsa, prokurorlar hujjatlarni tekshirish, guvohlarni so'roq qilish va boshqa tegishli tadbirlarni amalga oshirish huquqiga ega [12].

Shuningdek, Latviya Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 16-moddasi "Shaxslar va davlatning huquqlarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilish" deb nomlanib, unda prokuror tekshiruvlarini o'tkazish tartibi belgilangan [13]. Unga asosan, agar qonun buzilishi haqida ma'lumot olingan bo'lsa, prokuror qonunda belgilangan tartibda tekshiruv o'tkazadi, agar:

Ma'lumot jinoyatga oid faktlarni o'z ichiga olsa;

Jismoniy qobiliyati cheklangan shaxslar, nogironlar, voyaga yetmaganlar, qamoqdagi shaxslar yoki huquqlarini himoya qilishda qiyinchiliklarga duch keladigan boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlari buzilgan bo'lsa.

Ushbu keltirilgan huquqiy normalarni milliy qonunchiligimiz bilan qiyosiy-huquqiy tahlil qiladigan bo'lsak, jinoyatga doir faktlar aniqlansa, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asosan, materiallar tergovga qadar tekshiruv organiga yuboriladi hamda jinoyat tarkibi mavjud bo'lsa, jinoyat ishi qo'zg'atilib tegishli tergov harakatlari olib boriladi.

Buyuk Britaniyada prokuratura odatda jinoiy ishlar bilan shug'ullanadi, ammo umumiy nazorat funksiyasiga ega emas. Bu davlatda prokuratura faqat jinoiy tergovlar va sud ishlarida qatnashadi, shuningdek, fuqarolik yoki boshqaruv ishlariga bevosita aralashmaydi.

AQSHda prokuratura asosan jinoiy ishlar bilan shug'ullanadi, federal va shtat darajalarida prokurorlar faqat ma'lum vakolatlar bilan ishlaydi. Umumiy nazorat funksiyasi, masalan, hukumat organlari va ularning faoliyatini keng nazorat qilishda cheklangan. Bunda prokuratura faqat o'z vakolatlari doirasida ish olib boradi. Ayrim shtatlarida prokuratura politsiya faoliyatini jinoiy ishni to'g'ri yuritgani yoki yo'qligi nuqtai nazaridagina tekshirishi mumkin.

Kanada prokuraturasining faoliyati ham jinoiy ishlarni olib borish va sudda ishtirok bilan cheklangan. Prokuratura davlat organlari faoliyatini umumiy nazorat qilishda ishtirok etmaydi,

balki faqat qonunlarga amal qilishni ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha faoliyatni amalga oshirishi mumkin.

Yaponiya prokuraturasi ham umumiy nazorat funksiyasini bajarmaydi. Ushbu davlatda ham prokuratura asosan jinoiy ishlarni tergov qilish va sudga taqdim etish bilan shug'ullanadi, ammo davlat organlarining faoliyatini keng miqyosda nazorat qilishda ishtirok etmaydi.

Fransiyada ham prokuratura, asosan, jinoiy ishlarni tergov qiladi va sudlarga taqdim etadi, lekin umumiy nazorat funksiyasi muayyan darajada cheklangan. Fransuz huquq tizimida prokuratura ko'proq jinoiy adliya tizimi bilan bog'liq vazifalarni bajaradi.

Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarida prokurorlarning qonunlar ijrosini nazorat qilish (umumiy nazorat) funksiyasi va tekshiruv o'tkazish faoliyati turli xil bo'lib, har bir mamlakatning huquqiy tizimi, tarixiy rivojlanishi va madaniyatiga asoslanadi.

Singapur prokuraturasi davlat huquqni muhofaza qilish tizimining ajralmas qismi bo'lib, sud hukmlarini amalga oshirishni va jinoyatlarni tergov qilishni nazorat qiladi. Singapurda prokuratura faoliyati, asosan, huquqiy tartibni saqlash, jinoyatlarni tergov qilish va jazolarni samarali amalga oshirishga qaratilgan [14]. Singapur prokuraturasining faoliyat yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan torroq ekanliga guvoh bo'lish mumkin. Bu holat prokuraturaning ayrim funksiyalari sud va adliya organlari tomonidan amalga oshirilishi bilan izohlanadi.

Malayziya prokuraturasi Bosh prokuror (Attorney General) boshchiligidagi mustaqil organdir. Bu davlatda prokuratura jinoiy ishlarni qo'zg'atish, tergov qilish va sudga taqdim etish huquqiga ega. Ular jinoiy faoliyatga qarshi kurashish va qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, prokuratura davlat manfaatlarini sudlarda himoya qiladi, jumladan, davlat mulki, shartnomalar va boshqa davlat manfaatlariga zarar yetishi bog'liq masalalarda. Malayziya huquqiy tizimi asosan ingliz umumiy huquqiga asoslangan. Shu bois bu tizimda prokuraturaning "umumiy nazorati" kabi institut mavjud emas.

Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida prokuratura tizimi ko'pincha mahalliy muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, korrupsiyaga qarshi kurash, ekologik huquqlarni himoya qilish, va inson huquqlarini ta'minlash kabi muammolarni hal qilishda prokuratura faoliyat yuritadi. Masalan, Tailandda prokuratura organlari, asosan, jinoiy ishlarni ko'rib chiqishadi, ammo shu bilan birga korrupsiyaga qarshi kurashda ham ishtirok etadi va davlat apparatining boshqa sohalarida ham nazorat olib boradi.

Shu o'rinda qonunchilikni yanada takomillashtirish uchun ilmiy tadqiqotlarimiz natijasi sifatida yana bir taklifni keltirib o'tishni joiz, deb bilamiz. Amaldagi O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasida qayd etilgan oshkoralik prinsipining ro'yobi o'laroq, mazkur qonunga "Prokuror nazorati tadbiri yakuni va natijalari haqida jamoatchilikka ma'lum qilinishi mumkin, bundan davlat siri bo'lgan ma'lumotlar yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir mustasno" tarzidagi huquqiy norma kiritilishini ham taklif qilamiz. Bu prokur nazorati qaratilgan obyektlarda qonunbuzilish holatlari kamayishiga hamda ular tomonidan o'z faoliyati qanchalik qonunga muvofiq ekanligi domiy ravishda tahlil qilib borilishiga, bu orqali esa kelgusida sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni oldini olishga ham hissa qo'shadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Birinchidan, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbirlarining tasnifini hamda ushbu tadbirlar yakuni va natijalarini jamoatchilikka ma'lum qilish mexanizmini O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga kiritishni taklif qilamiz.

Ikkinchidan, keltirib o'tilgan ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi asosida qonunlar ijrosi ustidan

prokuror tekshiruvlarini o'tkazish asoslari, muddatlari hamda bosqichlarini takomillashtirish hamda bunga doir huquqiy munosabatlarni prokuratura organlariga doir qonunchilikda aniq va qat'iy tarzda tartibga solish dolzarb sanaladi, deb hisoblaymiz.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 08.01.2024-yildagi prokuratura organlari xodimlari hamda faxriylariga tabrik nutqi // URL: <https://president.uz/uz/lists/view/6961>.
2. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori Nig'matilla Yo'ldoshev To'liqinovichning 19.03.2025-yildagi mamlakat aholisiga murojaatidan // URL: <https://t.me/uzbprokuratura>.
3. Po'latov B.X. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil qilish va prokuror nazoratining namunaviy hujjatlar to'plami//Amaliy-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 15-bet // URL: <https://proacademy.uz/postfiles/books/u-tp/index.html>.
4. Madaliyev O.M. Prokuror nazorati. Darslik. Maxsus qism. Toshkent – “ILM ZIYO”. – 2012.M – 19-bet // URL: <https://elibrary.namdu.uz>.
5. Komilov A.B. Qonunlar ijrosi yuzasidan prokuror tekshiruvini qonun hujjatlarida tartibga solishning dolzarb masalalari // Central Asian academic journal of scientific research. – 2021. №1. – B.1 // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/qonunlar-izhrosi-yuzasidan-prokuror-tekshiruvini-onun-uzhzhatlarda-tartibga-solishning-dolzarb-masalalari>.
6. Raximov F.X. Prokuror nazorati va faoliyat yo'nalishlari: ilmiy-amaliy maqolalar to'plami / yu.f.d. T.A.Umarov umumiy tahriri ostida. -T.: Noshir. 2008. – B. 87-94.
7. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va prokuratura: risola // Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. A.X.Saidov. – T.: TDYuI nashriyoti, 2005. – B. 8-12.
8. Kolenko Y.V. Деятельность прокуратуры Республики Узбекистан в сфере противодействия коррупции // O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Axborotnomasi, №1 (49) 2022 (Maxsus son).–23-bet.
9. 9. Додонов В.Н., Крутских В.Е. Прокуратура в России и за рубежом. – М..2001. – Стр.15.
10. Колумбия // Правовые системы стран мира. Энциклопедический справочник.- М., 2000.
11. Turkmaniston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi Qonuni, Internet manbasi // URL: [https://turkmenistan.gov.tm/ru/post/25369/zakon-turkmenistana-%3Cbr%3Eo-prokurature-turkmenistana-\(novaya-redaktsiya\)](https://turkmenistan.gov.tm/ru/post/25369/zakon-turkmenistana-%3Cbr%3Eo-prokurature-turkmenistana-(novaya-redaktsiya)).
12. Belorussiya Respublikasi prokuraturasining rasmiy veb-sayti // URL: <https://www.prokuratura.gov.by/en/about/>.
13. Latviya Respublikasi prokuraturasining rasmiy veb-sayti // URL: <https://prokuratura.lv/en/par-mums/normativie-akti>.
14. Singapur hukumati sayti // URL: <https://www.agc.gov.sg/about-us/mission>.

YURIST AXBOROTNOMASI

3-SON 5-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 3, ВЫПУСК 5

LAWYER HERALD

VOLUME 5, ISSUE 3

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416